

MARKAZIY OSIYODA DUNYOVII DAVLAT QURISHDA DUNYOVIIYLIKNING TURKIYA MODELI

*Usmonova Nilufar Fayoziddin qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Amaliy siyosatshunoslik yo‘nalishi magistranti*

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyoviy davlat qurish muammosi Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy muammolardan biriligidcha qolmoqda. Ushbu tezisda Markaziy Osiyo davlatlaridagi dunyoviy davlat qurishda qiyinchilik paydo qilayotgan asosiy muammolar tahlil qilindi va ushbu muammolar yechimi sifatida dunyoviylikning Turkiya modelini yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi.

Kalit so‘zlar: Postsovet, sekulyarizatsiya, tajavvuzkor sekulyarizatsiya, passiv sekulyarizatsiya, kemalizm, institutsionalizatsiya, diversifikatsiya.

Аннотация. В настоящее время проблема построения светского государства остаётся одной из ключевых для стран Центральной Азии. В данной тезисе проанализированы основные трудности, возникающие при формировании светского государства в государствах Центральной Азии, и в качестве возможного решения предложено внедрение турецкой модели секуляризма.

Ключевые слова: постсоветское пространство, секуляризация, агрессивная секуляризация, пассивная секуляризация, кемализм, институционализация, диверсификация.

Abstract. Today, the problem of building a secular state remains one of the main challenges for the Central Asian countries. This thesis analyzes the key difficulties encountered in the process of establishing secular governance in Central Asia and suggests the Turkish model of secularism as a possible solution.

Keywords: Post-Soviet, secularization, aggressive secularism, passive secularism, Kemalism, institutionalization, diversification.

Din postsovet davlatlari fuqarolari uchun, ayniqsa Markaziy Osiyo hududida, muhim identitet unsurlaridan biriga aylandi. Natijada, etnik yoki milliy kelib chiqishidan qat’i nazar, Markaziy osiyoliklarning shaxsiy hamda ijtimoiy hayotida islomning o‘rni sezilarli darajada kuchaydi va kelajakda ham bunday ahamiyat ortib borishi kutilmoqda. Diniy qayta tiklanish jarayoni bilan bir qatorda, mintaqaga mamlakatlarida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning qay tarzda yo‘lga qo‘yilishi haqida munozaralar yuzaga keldi. Shuning uchun, ma’lum muddat davomida dinga qaytishning jamoat hayoti va siyosatdagi oqibatlari muhokama qilinib kelinmoqda. Shuni e’tirof etish kerakki, sekulyarizatsiya nazariyasining dinning so‘nishi yoki jamoat maydonidan butunlay chekinishi haqidagi bashoratlariga zid ravishda, din

ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Aksincha, 1970-yillardan boshlab sekulyarizatsiya emas, balki dinning qayta tiklanish jarayoni kuzatila boshlandi. Umuman olganda, zamonaviy davrda dinning ahamiyati oshgani bois, sekulyarizatsiya nazariyasi paradigmatik mavqeini yo‘qotdi. Dinning “e’tiqodning susayishi, diniy amaliyotlarda ishtirokning kamayishi, diniy qadriyatlarning shaxsiylashtirilishi hamda uning jamoatdagi ahamiyatining pasayishi” ko‘rinishida tanazzulga uchrashi haqidagi farazlar amalda o‘z isbotini topmaganini ta’kidlash zarur. Oradan o‘ttiz yil o‘tgach ham, Markaziy Osiyo mamlakatlarda davlat-din munosabatlarini bevosita o‘rgangan ilmiy ishlar deyarli yo‘q. Mavjud izlanishlarning katta qismi asosan islomiy uyg‘onish, radikalizm yoki terrorizmga qarshi kurash masalalariga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazaridan, Turkiya sekulyarizmning tajovuzkordan passiv shaklga o‘tish jarayoni Markaziy Osiyo uchun muhim misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Sababi, Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z tarixida davlat tomonidan tizimli ravishda joriy etilgan o‘xhash sekulyar-modernistik siyosatlarni amalga oshirib kelgan. Sekulyarizm ikki jihatni anglatadi: birinchidan, davlat bilan dinning ajratilishi; ikkinchidan, davlatning diniy va dunyoviy turmush tarzlariga nisbatan neytral munosabatda bo‘lishi. Biroq mutlaq sekulyarizm mavjud emas, chunki har bir mamlakatda u tarixiy an‘analar va ijtimoiy hayotning boshqa qismlari bilan aralashgan holda nisbiy xarakterga ega bo‘ladi. Postsovet mamlakatlarda davlat-din munosabatlari, xususan, dindor fuqarolarning huquq va erkinliklariga doir davom etayotgan bahslar turli zamonaviy sekulyarizm modellari tahlilining ahamiyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, diniy masalalarda davlat siyosatini liberallashuvdan qaytarishni istovchi kuchlar hamda dinga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyadagi ideologik sekulyarizm tarafдорлари mavjud bo‘lgan bir paytda, zamonaviy sekulyarizmning turli modellari ustida fikr yuritish zarurdir.

So‘nggi davrlarda ko‘plab muslimon mamlakatlarda sekulyarizmning agressiv turi kuzatildi. U ayrim shaxslar, guruhlar yoki elitalar tomonidan mafkura yoki keng qamrovli ta’limot sifatida ilgari surilib, din va diniy ifodalarni nafaqat siyosiy maydondan, balki ijtimoiy sohalardan ham butunlay siqib chiqarishga qaratilgan. Eng yorqin va muvaffaqiyatli misollardan biri sifatida Turkiyaning kemalizmi tilga olinadi. Postsovet Markaziy Osiyoga kelganda, bu mintaqa sovet tuzumi davrida dunyo tarixida misli ko‘rilmagan darajada zo‘ravon modernizatsiya tajribasiga duchor bo‘ldi. Bunda sekulyarizm mafkurasi Sovet Kommunistik partiyasi qo‘lida shakllangan sovet mafkurasi orqali amalga oshirildi. Shu bois zamonaviy turk va Markaziy Osiyo jamiyatlari o‘rtasida ko‘plab o‘xhashliklarni ko‘rish mumkin. Ikkisi ham tezkor, majburiy va dinga qarshi yo‘naltirilgan modernizatsiyadan o‘tgan. Natijada, Turkiyadagi kemalizm ham, postsovet davlatlaridagi sovet ateizmi ham ongli yoki ongsiz ravishda ko‘plab izdoshlarni yetishtirdi. Ularning ayrimlarini sekulyarist

fundamentalistlar deb atash mumkin. Sovet merosi — postsoviet davlatlarida sekulyarizmning fransuzcha laitsizm shaklida idrok etilishining asosiy sabablaridan biridir. Shu bois postsoviet mamlakatlari elitalarining Kemalistlar singari tajovuzkor sekulyarizmni mustaqillikni mustahkamlash va milliy birlikni qurishning yagona yo‘li sifatida qabul qilishgan.

Turkiya — majburiy sekulyarizatsiya siyosatiga duch kelgan musulmon mamlakatlar orasida siyosiy islomning qayta paydo bo‘lishi, chuqur mo‘‘tadillashuvi va liberallashtirilishining eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Turkiya islomchilari va dindor siyosatchilari ko‘p marotaba taqiqlanganiga va hokimiyatdan chetlatilganiga qaramay, zo‘ravonlikni rad etib, plyuralizm va demokratiya diskursini qabul qildilar, siyosiy maydonga kirib konservativ demokratiyani tanladilar. Davlat-din munosabatlarining qaysi modelini tanlash ko‘pincha tarixiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa-da, bugungi dunyoda bu masalada asosiy mezon — inson huquqlarini himoya qilish bo‘lishi lozim. Shuningdek, Diniy radikalizm Markaziy Osiyo mamlakatlari xavfsizligiga katta tahdid solishi bilan birga, davlat-din munosabatlarining rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U, bir tomonidan, inson huquqlari va demokratiyaga mos sekulyarizm modellari barqaror rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi, ikkinchi tomonidan esa, mintaqada “Leviatan” — ya’ni mutlaq davlatning qayta tiklanishini istagan kuchlar da’volariga legallik tusini beradi. Biroq siyosiy va diniy plyuralizm radikalizmni jilovlaydi, chunki diniy g‘oyalar raqobat bozorida mavjud bo‘lganida, diniy yetakchilar o‘z nutqlarini mo‘tadil qilishga majbur bo‘ladilar, jamiyat esa mo‘tadil talqinlarni afzal ko‘radi. Tajovuzkor sekulyarizm qanchalik ko‘p dinga qarshi chiqsa, din shunchalik siyosiyashadi. Bu o‘ziga xos yovuz aylana: sekulyarizm dini jamoat hayotidan chiqarib tashlashga intiladi, biroq oxir-oqibat uni siyosiy hayotga yanada chuqurroq tortadi. Sekulyaristlar dinni tinimsiz hujum ostiga olgan sari, din ham o‘zini himoya qilish uchun siyosiy maydonga chiqadi. Aksincha, davlat sekulyarist siyosatidan voz kechib, diniy erkinliklarni kafolatlaganidan so‘ng din siyosiy maydondan chekinadi.

Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadi, nisbatan erkin muhitda konservativ demokratlarning kuchayishi siyosiy islomdagi radikal elementlarni mo‘‘tadil va neytral yo‘nalishga burishga yordam berdi. Bir tomonidan, tajovuzkor sekulyarizmning yumshatilishi va mo‘tadillashuvi, ikkinchi tomonidan, islomning jamoat maydonidagi rolining ortishi Turkiyani nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki boshqa musulmon mamlakatlari uchun ham qiziqarli tajribaga aylantirdi. Mintaqadagi barcha davlatlar — qaysi davlat-din modeli qabul qilinganidan qat’i nazar — Turkiya musulmonlarining demokratik qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi fuqarolik tashabbuslaridan to‘g‘ri saboq olishlari mumkin. Turk fuqarolik jamiyatni plyuralistik turmush tarzini shakllantirishda va ijtimoiy qatlamlari umidlarini passiv sekulyarizmni qo‘llab-quvvatlaydigan identitet qurilishi tomon yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlari Turkiyaga o‘xshash dunyoviylik modelini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qila olmaydi, chunki ularning barchasi postsoviet ateistik davlatlardir va ijtimoiy to‘qimalari Turkiyanikidan tubdan farq qiladi. Undan tashqari, bu mamlakatlarda diniy ta’lim va diniy ong hamda madaniyat ham Turkiyadagidan farq qiladi. Islomni siyosatda vositaga aylantirish va uni oddiy mafkuraga aylantirish postsoviet jamiyatlarida halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, denga jamoat maydonida ko‘rinish beradigan va mo‘minlarning huquqlarini kafolatlaydigan passiv sekulyarizm modeli Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng maqbul yo‘l bo‘lib ko‘rinmoqda. Albatta, Turkiyaning tarixiy tajribasini to‘liq takrorlashning hojati yo‘q, biroq Turkiyadagi sekulyarizm modelining evolyutsion o‘zgarishidan (iqtisodiy hayotni liberallashtirish, xorijiy bozorlarga chiqish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, ta’limni diversifikatsiya qilish va jahon darajasidagi ta’lim imkoniyatlarini yaratish orqali) ko‘plab saboqlar olinishi mumkin.

Xuddi liberal siyosiy tafakkur Roulz ilgari surganidek, postsoviet Markaziy Osiyoda ham asosiy diniy mo‘minlar tomonidan adolatning liberal siyosiy konsepsiysi institutsionalizatsiya qilinishi va demokratik jamiyat qurilishi mumkin degan umid mavjud. Shu ma’noda, mintaqada yangi avlodni shakllantirish zarur: u bir tomondan liberal qarashli va plyuralistik, ikkinchi tomondan esa dinparvar bo‘lishi kerak (dunyoqarashi dunyoviy yoki diniy bo‘lishidan qat’i nazar). Bu esa “Markaziy Osiyo sekulyarizmlari”ni tajovuzkor unsurlardan xalos qiladi. Fuqarolik jamiyatining kuchayishi, iqtisodiy liberallashtirish va yuqori sifatli ta’lim yangi fuqarolik turini tarbiyalash va ijtimoiy, madaniy hamda diniy hayotni diversifikatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kuru, A.T. (2008) ‘Secularism in Turkey: Myths and Realities’, *Insight Turkey*, 10(3), pp. 101–122.
2. M. Omelicheva, “Islam in Kazakhstan: a survey of contemporary trends and sources of securitization,” *Central Asian Survey*, Vol. 30, No. 2, 2011, p. 244.
3. Yilmaz, I. (2012) ‘Towards a Muslim Secularism’, *Turkish Journal of Politics*, 3(2), pp. 41–57.